

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.R.Usmanov, N.A.Suyarova, S.A.Normatov</b>	
Cho'l turizmini hududiy tashkil etishning geografik xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida) .....	262
<b>J.T.Makulov</b>	
Sel toshqinlarining dinamik ko'rsatkichlarini baholash .....	268
<b>I.Z.Akaboyev</b>	
Qoradaryo havzasi muzliklarining balandlik xususiyatlari va morfologik turlari .....	274
<b>Sh.Z.Jumaxanov A.A.Abdullayev</b>	
O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmuasining tarmoq va hududiy tarkibi .....	280
<b>A.F.Raxmatov</b>	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligida bog'orchilik sohasining ahamiyati va istiqbollari .....	289
<b>O.O.Baltabayev</b>	
Qoraqalpog'iston oykonimiyasining spektral va stratigrafik tarkibi va undagi hududiy tafovutlar .....	294
<b>B.R.Rapiqov</b>	
Markaziy Osiyoda Sirdaryo suv resurslaridan hamkorlikda foydalanish masalalari.....	301
<b>X.A.Abduvaliyev</b>	
Aholi joylanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar .....	306
<b>D.X.Yuldasheva</b>	
Aholining demografik faolligi ijtimoiy-geografik obyekt sifatida.....	315
<b>O.B.Abdurayimova</b>	
Global iqlim o'zgarishi davrida o'rta Zarafshon havzasidagi suv omborlarining atrof-muhitga ta'siri .....	320
<b>M.R.Qoriyev</b>	
Namangan viloyatidagi sug'oriladigan yerbarning ikkilamchi sho'rlanish muammosi va uni bartaraf etish imkoniyatlari.....	331
<b>R.T.Pirnazarov</b>	
Tog' ko'llarining evolyutsiyasi, genetik tasniflari va o'ziga xos xususiyatlari.....	340

---

ILMIY AXBOROT

<b>I.Sh.Tugizova</b>	
<i>Achillea</i> L. turkumiga mansub ayrim dorivor turlar tahlili.....	344
<b>D.I.Komilova, B.M.Sheraliyev</b>	
Qoradaryo ixtiofaunasi: antropogen omilning faol ta'siridan oldin va keyin .....	348
<b>I.Sh.Tugizova</b>	
<i>Achillea mellifolium</i> L. o'simligining fitokimyoiy tarkibi va xalq tabobatida qo'llanilishi .....	355
<b>O.M.Gafurova, Sh.A.Xalimov, B.M.Sheraliyev</b>	
<i>Schizothorax</i> Heckel, 1838 (Teleostei: Cyprinidae) urug'ining qisqacha o'rganilish tarixi va hozirgi sistematik holati .....	355

**УО'К: 551.436 (575.1)**

**CHO'L TURIZMINI HUDUDIY TASHKIL ETISHNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI  
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

**GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE TERRITORIAL ORGANIZATION OF DESERT  
TOURISM (ON THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION)**

**ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ  
ПУСТЫННОГО ТУРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**Usmanov Marufdjan Rustamovich<sup>1</sup>** 

<sup>1</sup>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, geografiya fanlari doktori, dotsent.

**Suyarova Nargiza Ashur qizi<sup>2</sup>** 

<sup>2</sup>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tayanch doktorant

**Normatov Sunnat Axmadovich<sup>3</sup>** 

<sup>3</sup>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatining cho'l mintaqalarida turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bunda hududning mavjud turistik resurs imkoniyatlaridan jahon andozalariga muvofiq foydalanish va qishloq turizmini hududiy tashkil etish masalalariga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari cho'l turizmining ba'zi iqtisodiy geografik asoslariga urg'u berilgan. Jumladan: cho'l qishloqlardagi turizm resurslarning ro'yxatini olish, ulardan ichki va xalqaro turizmda foydalanish darajalari, tavsiflarini ishlab chiqish, cho'l qishloq turizmida atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik turizmni rivojlantirish dasturlarini yaratish kabiilar o'rın olgan.

**Аннотация**

В данной статье рассмотрены возможности развития туризма Каракалпакской области, уделено внимание вопросу регионализации сельского туризма и вывода его на мировой рынок из существующих туристических показателей региона. Кроме того, выделены некоторые экономико-географические основы пустынного туризма. Среди них – перечень туристических ресурсов в пустынных деревнях, разработка уровней и описаний их использования во внутреннем и международном туризме, охрана окружающей среды в пустынном сельском туризме, создание программ развития экологического туризма.

**Abstract**

This article examines the potential for tourism development in the Kashkadarya region, focusing on the issues of taking the region's existing tourism potential to the world market and organizing rural tourism in the regions. In addition, some of the economic and geographical foundations of desert tourism are emphasized. These include: obtaining a list of tourism resources in desert villages, developing their levels and descriptions for use in domestic and international tourism, environmental protection in desert village tourism, and creating programs for the development of ecological tourism.

**Kalit so'zlar:** cho'l turizmi, flora, fauna, geomeros, geoturizm, etnoturizm, agroturizm.

**Ключевые слова:** пустынный туризм, флора, фауна, геомерос, геотуризм, этнотуризм, агротуризм.

**Key words:** desert tourism, flora, fauna, geomeros, geotourism, ethnotourism, agrotourism.

**KIRISH**

Bugungi zamонави iqtisodiyot rivojlangan zamonda iqtisodiyotning eng ajralmas va keng tarqalgan sohalaridan biri bu – turizm hisoblanadi. Bu haqiqatga oxirgi 10-15 yilliklarda kengroq e'tibor berila boshlanishi natijasida O'zbekistonga sayyoohlар oqimi o'tgan yilgiga nisbatan 16,8%ga oshgan [6]. Bu albatta xursand qilsa-da, ammo bu raqamlarni yanada kengaytirish maqsadida, ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Qadimiy arxitektura namunalari joylashgan shaharlar va tabiat so'lim hududlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lib Qashqadaryo viloyatida ham juda ko'plab obyektlar uchraydi.

## GEOGRAFIYA

“O’zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari” to’g’risidagi 2021-yil 9-fevral sanasidagi PF-6165 son Farmonining 9-bandiga muvofiq, Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash maqsadida amaliy ishlar yo’lga qo’ylgan bo’lsa ham, ammo hududning cho’l mintaqasida bu ko’rsatkichlar ancha pastligicha qolmoqda. Binobarin bir qator istiqbolli imkoniyatlarning mavjudligi sohaga oid rivojlantirilishi lozim omil hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turizm bu - jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo’lish mamlakatdagi manbalardan daromad olish bilan bog’liq bo’lgan faoliyat bilan shug’ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo’nab ketishi (sayohat qilishi) bo’lib, har yili milliardlab insonlar ishtirok etishadi. Bu raqamlar eng tez o’suvchi hamda o’z xususiyatini kamdan kam vaqtarda yo’qotuvchi hisoblanadi (yo’qotishga namuna sifatida COVID-19 pandemiyasini misol keltirishimiz mumkin) [3]. Turizm tushunchasi xorijiy va Respublika olimlari tomonidan keng o’rganilgan bo’lsa-da, ammo ancha vaqtgacha o’z ta’rifini berishmagan. 2005-yilda yurtimiz geograflari A.A.Soliyev va M.Uzmanovlar tomonidan turizmga quyidagicha ta’rif berilgan: “**Aholining o’zi yashab turgan mintaqasi, hudud, o’lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko’rish maqsadida uyushtirilgan rekreatsion faoliyat turiga turizm deyiladi**”[3].

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

O’zbekistonda turizm keng salohiyatga ega bo’lib, qadimiy arxitektura inshootlari, so’lim joylar, rekreatsion hududlari talaygina. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2023-yildagi PQ-238-sonli “Turizm yo’nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora tadbirlari to’g’risida”gi qarorida ham turizmga e’tibor mamlakatimizda yanada kuchaytirildi [1]. Tadqiqot obyekti hisoblanmish Qashqadaryo viloyatida ham turizm jadal rivojlanmoqda. O’tgan 3 yillikni sarhisob qiladigan bo’lsak, Qashqadaryo turistik infratuzilmasini yaxshilash uchun mehmonxona va shunga o’xshash joylashtirish vositalari 81tadan 327 taga, o’rinlar soni 5500 taga, turoperatorlar soni esa 34 taga yetgani qayd etildi. Turizm sohasida 2023-2024 yillarga mo’ljallangan qiymati 105 mln dollarlik 151 ta hududiy investitsiya loyihalaridan 93 tasi to’liq ishga tushirildi. Turizm va yondosh sohalarida 14 204 ta ish o’rni yaratildi. 2023 yilda viloyatga 2 mln 109 ming nafar mahalliy, 222 ming nafar xorijiy sayyoohlар tashrif buyurib, turizm xizmatlari eksporti 45 mln dollarga yetkazildi [8]. Shahrисabz va Kitob shaharlari boy tabiatи bilan turistlarni o’ziga keng jalb qilib kelayotgan bo’lsa, viloyatning g’arbiy, janubiy va markaziy qismlarida bu ko’rsatkich pastligicha qolmoqda.

1-jadval

**Qashqadaryo viloyatida 2024-yil hisobi bo’yicha tumanlar miqyosida tashrif buyurgan sayyoohlар soni (ming kishi hisobida)**

T/r	Tumanlar nomi	Tumanlar kesimida tashrif buyuruvchilar soni, rejada	Amalda tashrif buyurganlar soni
1	Qarshi sh.	162,8	177,8
2	Shahrisabz sh.	83,4	188,3
3	Qarshi tumani	158,8	111,1
4	Kasbi	89,3	70,0
5	Kitob	150,9	205,5
6	Koson	81,4	84,0
7	Ko’kdala	103,2	74,4
8	Mirishkor	63,5	47,2
9	Muborak	119,1	65,5
10	Nishon	75,4	52,6
11	Dehqonobod	154,8	132,6
12	Qamashi	89,3	132,4
13	Yakkabog’	170,7	176,6
14	Chiroqchi	194,5	140,7
15	Shahrisabz	137,0	302,8
16	G’uzor	150,9	132,7

Izoh: mualliflar tomonidan turizm qo’mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

Viloyatni turizm rivojlanganligiga ko'ra tipologik jihatdan, 3 guruhga bo'lib o'rganish mumkin:  
 yaxshi – Shahrисabz shahri, Qarshi shahri, Kitob;  
 qoniqarli – Shahrисabz tumani, Qarshi tumani, Yakkabog', Qamashi, Koson;  
 qoniqarsiz – Muborak, Mirishkor, Nishon, Kasbi, Chiroqchi, Ko'kdala, Dehqonobod, Qamashi  
 (1-jadval).

Ushbu jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2024-yil davomida Qarshi shahri, Shahrисabz shahri, Kitob, Koson, Qamashi, Yakkabog', Shahrисabz tumanlarida holat ancha ijobiy bo'lsa-da, Qarshi, Kasbi, Ko'kdala, Mirishkor, Muborak, Nishon, Dehqonobod, Chiroqchi, G'uzor tumanlarida holat past ko'rsatkich kasb etgan.

Bu tasnifni yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, hududlarni geografik joylashuviga ko'ra baholaganimizda, tog'li va cho'l mintaqalariga ham bo'lib o'rganish mumkin.

**Cho'l** – bu juda ham quruq iqlimga moslashgan, yog'in miqdori bug'lanish miqdoridan bir necha o'n barobar kam, flora va faunaga kambag'al, arid xususiyatlari sho'rslashgan tuproqlardan iborat hududlar bo'lib, cho'llarning gipsli, sho'rxok, shag'alli, gilli, qumli kabi cho'llar yer yuzasi bo'ylab tarqalgan, Uiver (2001) ma'lumotlariga ko'ra, cho'l turizmi yettita xususiyatni o'z ichiga oladi:

- ajoyib geologik xususiyatlari va iqlim sharoitlari,
- yovvoyi gul va boshqa sporadic gulli ko'rgazmalar,
- qadimiy, ulkan yoki noyob o'simliklar,
- karvonlar yoki boshqa cho'l sayohatlari,
- mahalliy fuqarolar odatlari,
- vohalar,
- qo'riqlanadigan hududlar [11].

Geoturizmda hissiyor turizmiga, ya'ni kishilarning psixologik holatlariga e'tibor qaratilinishi noan'anaviy hududlar turizmiga bo'lgan qiziqishni oshirmoqda, qo'riqlanadigan hududlarning geologik xususiyatlari, noyob landshaftlar, davlat tarafidan geomeros bo'lib kelinayotgan turizm obyektlariga bo'lgan qiziqishlarning kuchayishi hamda takrorlanmas va tez o'zgaruvchan cho'l dunyosi ham o'z ixlosmandlariga tobora ega bo'lib bormoqda.

Bunday hududlar Qashqadaryo vohasida ham mavjud hisoblanadi. Eng asosiy cho'llaridan biri bo'lgan Qarshi cho'li XX asrning 60-yillardan boshlab o'zlashtirila boshlandi. Ushbu tadqiqotlardan tortib bugungi kunlikacha cho'lni faqatgina tabiiy xususiyatlarini o'rganib, xaritalarda tasvirlagan bo'lsada, ammo turizm jihatidan cho'llar hali yaxshi o'rganilmagan. Ba'zi bir ma'lumotlar S.A.Nishonov (1962-1974), Babushkin L.N., Kogay N.A. (1962-1982), A.A.Abulqosimov (1980,2008), S.I.Abdullayev (1980, 2002, 2004), R.Ulmonova (1996-2002) ilmiy ishlarida berilgan bo'lsa, bugungi kunlikda Ulmonov M.R., Jumayev X. kabilar Qashqadaryo viloyat turizmiga ko'proq e'tibor qaratgan.

Qarshi cho'lining umumiy maydoni 13,6 ming kmni tashkil etadi. Qarshi cho'li maydonining aksariyat katta qismi (86% dan ortiqrog'i yoki 11,7 ming km) O'zbekistonda va qolgan qismi (1,9 ming km) Turkmaniston hududi doirasida joylashgan [8, 10]. Viloyatning cho'l mintaqasiga Muborak, Mirishkor, Koson, Nishon va Qarshi tumanlari kiradi (2-jadval).

## 2-jadval

### Qashqadaryo viloyatida mavjud cho'l tumanlaridagi turistik obyektlar

T/r	Hudud nomi	Arxeologik yodgorliklar soni	Arxitektura yodgorliklari soni	Monumental san'at yodgorliklari	Diqqatga sazovor joylar
1	Qarshi shahri	28	25	6	1
2	Koson tumani	76	11	4	1
3	Qarshi tumani	58	20	28	5
4	Kasbi tumani	79	11	2	2
5	Nishon tumani	3	1	-	3
6	Mirishkor tumani	9	6	2	1
7	Muborak tumani	2	3	2	1
<b>8</b>	<b>Viloyatida jami:</b>	<b>1041</b>	<b>215</b>	<b>65</b>	<b>28</b>

Izoh: mualliflar tomonidan turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

## GEOGRAFIYA

Shundan Muborak tumanida Abu Abdulloh al-Mervaziy ziyoratgohi, qum tepalari, tuya minish va tuya sutini ichish, issiq mineral buлоqlar, Mirishkor tumanida Sechanko'l atrof hududi zonasи, baliq ovi, tuyaqush yetishtirish, Koson tumanida mavjud turizm obyektlari, Kasbi tumanida Sultan Mir Haydar ota va Xo'jamurod Baxshi ota ziyoratgohlari, Nishon tumanida Talimarjon shaharchasi, Qarshi tumani va Qarshi shahrida mavjud ziyoratgohlar va qadimiy Nasaf shahri qoldiqlari, Qarshi shahri asosiy turizm jalb etuvchi hududlar bo'lib kelmoqda.

Cho'l qishloqlarimizda turizmnинг quyidagi turlarining resurslari ham mavjudligi ko'zga tashlanadi: tarixiy – arxeologik turizm resurslari, etnografik turizm resurslari, qishloq xo'jaligi – agroturizm, diniy-ziyorat turizmi, ekologik turizm resurslari, rekreatsiya va sog'lomlashtirish turizm resurslari, qishloq fermerlari ish tartibi va hayot tarzi va b.

## 3 - jadval

Qashqadaryo viloyatida cho'l turizmi imkoniyatlari

	Turizm turlari	Turizm resurslari	Foydalanish imkoniyatlari
1	Diniy-ziyorat turizmi	Muqaddas qadamjolar, masjid va boshqa ziyorat joylari	Yuqori
2	Qishloq xo'jaligi-agroturizm	Qishloq bog'lari, qishloq xo'jaligi ishlari qishloqning o'ziga xosligi.	O'rta
3	Ekologik turizm	Qishloqlarning tabiiy geografik mintaqalari (adir, cho'l, suv havzalari va boshqalar) joylashganligi	O'rta
4	Tibbiyat turizmi	Mineral suv manbalari, sog'lomlashtirish markazlari, sanatoriylar, kurortlar qum yuzasida sayr qilish	O'rta
5	Etnografik turizm	An'anaviy mahalliy hayat tarzi, xalq o'yinlari, turli marosimlar	Yuqori
6	Tarixiy arxeologik turizm	Tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar	Yuqori

**Izoh:** muallif tomonidan turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Qishloq turizmini tashkil qilishda yuqorida qayd qilingan turizm turlarining barcha resurslari majmuali, birikkan holda ishlaydi va har qanday turistni ko'proq muddatlarga ushlab qoladi. Viloyatning cho'l qishloq joylardagi resurslardan turizm maqsadlarida foydalanishni majmuali tashkil qilish qulayligini hisobga olib yuqorida keltirilgan turizm turlarini jamlagan holda qishloq turizmi deb atasak, bu turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish ancha oson kechadi.

Dunyoda cho'l turizmiga oid tajribalar yetaricha bo'lib, yorqin misol sifatida Dubay shahri va uning atrofini keltirib o'tishimiz mumkin. Millionlab sayyoohlар ushbu manzilga aynan cho'l mo'jizalarini ko'rish uchun tashrif buyuradilar. Mavsumiy ekinlar vaqtida cho'l juda jozibali va betakror ko'rinishga ega bo'ladi, aynan shu vaqtida pik-niklar uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Bundan yana bir ko'zlangan maqsad sifatida esa biz quyosh chiqishi va botishi tomoshasini aytishimiz mumkin, cho'l qumtepalarini quyoshda yorqin shu'lalanib, o'ziga ohanrabodek tortadi. Sayyoohlarni doimiy tunash manzillarini yaxshilash, xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, mahalliy ovqatlar menyusini yaratish, ko'ngilochar dasturlar va festivallar tashkillashtirish kabilar kelgan manzillarida qolishga "majbur" etadi.

## O'zgaruvchan cho'l havosi



Izoh: Qarshi cho'li manzaralari, mualliflar tomonidan ishlangan rasm.

Cho'l dunyosida eng barqaror bo'lgan turizm turi – **Safariy turizmi** ham katta ahamiyat kasb etadi, sershovqin shahar, o'mronlar, daryo va dengiz vodiylari bilan bir qatorda noan'anaviy turizm olamiga sayohat albatta har bir ixlosmandni o'ziga jalb etmay qo'ymaydi. Qashqadaryo cho'llarida tuyada sayr qilishni keltirib o'tish mumkin. Bu safari turizmini Mirishkor, Koson va Muborak tumanlarida rivojlantirish imkoniyatlari juda yuqori. Muborak va Mirishkor tumanlarida kiyiklar, tustovuqlar kabilar ov qilish uchun sharoit yaratadi va buyurtmaxonalar orqali ularning turlarini ko'paytirish, shuning natijasida ovchilikni ham yo'lga qo'yish mumkin. Velopoygalar tomoshasi esa yoshlar qatlamini sezilarli ko'paytirish uchun zarurdir.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, cho'l turizmini rivojlantirish masalalari bir qator o'ziga xos yo'nalish va kategoriyalarga ega, jumladan: cho'l qishloqlarda yetishtirilayotgan va ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlarning sifatini ko'tarish va iste'molchini taklif qilish, cho'l qishloq turizmida marketingni tashkil qilish va talab – taklif iste'molchi tizimidagi ishlarning strategik rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, cho'l qishloq turizmining infratuzilmalarini yaratish usullarini ishlab chiqish va qishloq turizmi infratuzilmalarini yaratish, cho'llarda joylashgan qishloq aholisi orasida so'rovnomalar o'tkazish va hokazo. Qashqadaryo viloyati cho'l turizmini rivojlantirish imkoniyatlari yetarlicha bo'lib, cho'l doimo o'z turist uchun noodatiy sovg'alar tayyorlab qo'yadi. Masalan:

- cho'lda mavsumiy bahor tarovati va qizg'aldoqlar sayli;
- cho'lda hududida ov turizmini yuushtirish;
- cho'lda rekreatsion turizm obyektlarini yoki reklamasini kengaytirish;
- cho'lda geoturizm marshrutlarini yaratish;
- cho'lda safari turizmini rivojlantirish va hokazolar.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2023-yildagi PQ-238-soni "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora tadbirlari to'g'risida"

**GEOGRAFIYA**

2. Abdullayev S.I., Usmonova M.I. Qashqadaryo havzasida ma'daniy landshaftlarning shakllanish xususiyatlari //Geografiya va barqaror rivojlanish» (konferensiya materiallari).- Samarcand, 2004
3. Soliev A.S., Usmanov M.R. Turizm geografiyasi. - Samarcand, 2005.
4. Usmanov M.R., Eshquvvatov B.B., Fozilov X.X. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari //География, тупроқшунослик ва экологиянинг долзарб муаммолари. Конференция материаллари тўплами. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2018.
5. Usmanov M.R. Ecoturistic in Uzbekistan and its role in the development of tourism. International Journal of Research and Development (IJRD). Vol 1 (241), 2018.
6. Усманов М.Р., Жумабоев Т. Туризм дестинацияси: географиянинг тадқиқот объекти сифатида баъзи мулоҳазалар. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 2019.
7. Усманов М.Р. Туризм географияси (ўкув кулланма). - Самарқанд: СамДУ нашри, 2019.
8. Toshev N.J. Qashqadaryo viloyati turizm aglomeratsiyalarini optimal joylashtirish uchun algoritmik yondashuv. -Qarshi, 2024.
9. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qashqadaryo\\_viloyat\\_turizmi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qashqadaryo_viloyat_turizmi)
10. Qashqadaryo viloyati turizm qo'mitasi ma'lumotlari
11. Reichel, A., Uriely, N., & Shani, A. (2008). Ecotourism and simulated attractions: tourists' attitudes towards integrated sites in a desert area. Journal of Sustainable Tourism, 16(1), 23–41. DOI: 10.2167/jost711.0